
Samarqand davlat chet tillari instituti akademik litseyida yangi o'quv yiliga tayyorgarlik!

Bugun 9-sinf bitiruvchi o'quvchilarini Samarqand davlat chet tillari instituti akademik liseyiga jalb qilish maqsadida Pstdarg'om tumanidagi 1-sonli IDUM, 28-sonli IDUM ,41-sonli maktablarda xorijiy tillar bo'yicha direktor o'rinbosari Umid Pardayev, Yoshlar yetakchisi Orzumurod Yaxshiboyev, fransuz tili fani o'qituvchisi Umida Mamatjonova va ona tili fani o'qituvchisi Feruza Eshnayeva tomonidan targ'ibot ishlari olib borildi.

Targ'ibot davomida akademik liseydagi imkoniyat va sharoitlar, zamonaviy o'quv xonalari va boshqa liseylardan farqli ravishda joriy etilgan "Rektor stipendiyasi" va "Litsey iftixori" stipendiyalari ,bundan tashqari akademik litsey maxsus formalari hamda akademik litsey o'quvchilar turar joyi haqida olingan videorolik namoyish etildi .O'quvchilarni qiziqtirgan savollarga batafsil javob berildi va ularga akademik litsey haqidagi broshyuralari tarqatildi!

